



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

**PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF STUDENTS’ SELF-IMPROVEMENT
IN THE ACTIVITIES OF MILITARY ACADEMIC LYCEUMS**

Ergashev Doniyor Muhammadjon o‘g‘li

Master’s Student of Asia International University Bukhara Region, Bukhara City

Phone: +998 (97) 070-08-43 E-mail: doniyorbekunknown@gmail.com

ABSTRACT

This article comprehensively analyzes the psychological mechanisms of students’ self-improvement within the environment of Temurbek Military Academic Lyceums. The relevance of the study arises from the necessity to provide a psychological foundation for the personal development of cadets in the modern military education system. The research examines the interrelationship between emotional regulation mechanisms, cognitive processes, and metacognitive processes. The findings demonstrate that in the environment of military-oriented academic lyceums, self-development is effectively achieved through reflexivity, metacognitive control, and emotional reappraisal.

Keywords

military academic lyceum, self-improvement, reflection, metacognition, personal development, emotional regulation.

**HARBIY AKADEMIK LITSEY FAOLIYATIDA O’QUVCHILARNING O’Z-
O’ZINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONINING PSIXOLOGIK
MEXANIZMLARI**

Ergashev Doniyor Muhammadjon o‘g‘li

Osiyo Xalqaro Universiteti Magistr talabasi

Buxoro viloyati, Buxoro shahri

Telefon: +998 (97) 070-08-43

E-mail: doniyorbekunknown@gmail.com



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Temurbeklar maktabi harbiy akademik litseylari sharoitida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonining psixologik mexanizmlari kompleks umumiy ravishda tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy harbiy ta’lim tizimida kursantlarning shaxsiy rivojlanishini psixologik jihatdan asoslash zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqotda emotsional boshqaruv mexanizmlari, kognitiv va metakognitiv jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Natijalar orqali shuni ko‘rishimiz mumkinki, harbiylashtirilgan akademik litsey muhitida o‘z-o‘zini rivojlantirish refleksivlik, metakognitiv nazorat va emotsional qayta baholash orqali samarali amalga oshadi.

Kalit so‘zlar: harbiy akademik litsey, o‘z-o‘zini takomillashtirish, refleksiya, metakognitsiya, shaxsiy rivojlanish, emotsional boshqaruv.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ САМОСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
УЧАЩИХСЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННОГО АКАДЕМИЧЕСКОГО
ЛИЦЕЯ**

Эргашев Дониёр Мухаммаджон угли

Магистрант Азиатского Международного Университета

Бухарская область, город Бухара

Телефон: +998 (97) 070-08-43

E-mail: doniyorbekunknown@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье комплексно проанализированы психологические механизмы процесса самосовершенствования учащихся в условиях военных академических лицеев «Школа Темурбеков». Актуальность исследования обусловлена необходимостью психологического обоснования личностного развития курсантов



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

в современной системе военного образования. В исследовании изучена взаимосвязь механизмов эмоционального управления, когнитивных и метакогнитивных процессов. Результаты показывают, что в условиях военизированного академического лица саморазвитие эффективно осуществляется посредством рефлексивности, метакогнитивного контроля и эмоциональной переоценки.

Ключевые слова: военный академический лицей, самосовершенствование, рефлексия, метакогниция, личностное развитие, эмоциональное управление.

Zamonaviy psixologiyada shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni uning rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi. Ayniqsa, yuqori harbiy intizom, qat’iy talablar va murakkab ijtimoiy muhit bilan ajralib turuvchi harbiylashtirilgan ta’lim tizimida bu jarayon alohida ahamiyat kasb etadi. Harbiy akademik litseylar nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni kompleks rivojlantiruvchi muassasa sifatida faoliyat yuritadi. Bizga ma’lumki mazkur muhitda o‘quvchilar (kursantlar) nafaqat akademik bilimlarni egallaydi, balki ularda psixologik barqarorlik, jismoniy chidamlilik va kasbiy identifikatsiya shakllanadi. Shu boisdan o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni oddiy maktab muhitiga nisbatan murakkabroq psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Bugungi kunda harbiylashtirilgan ta’lim tizimida shaxsiy rivojlanishni ilmiy-daliliy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya va metakognitsiya kabi psixologik jarayonlarni chuqur tahlil qilishni taqazo qiladi.

Nazariy asoslar

O‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni psixologiya fanida turli nazariyalar asosida izohlanadi. Jumladan, faoliyat nazariyasiga ko‘ra, shaxs rivojlanishi uning faoliyati



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

orqali amalga oshadi [5: 112.]. Bu yondashuvga binoan, harbiy akademik litsey faoliyati o‘ziga xos rivojlanish muhitini yaratadi.

Shuningdek, ijtimoiy-madaniy yondashuv vakili L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasi shuni ko‘rsatadiki, shaxs rivoji tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladi [9: 84.]. Harbiy akademik litseyda mavjud qat’iy ierarxiya va jamoaviy nazorat ushbu jarayonni yanada kuchaytiradi.

O‘z-o‘zini boshqarish nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘z faoliyatini uch bosqich orqali tartibga soladi:

- o‘zini kuzatish,
- o‘zini baholash,
- o‘ziga ta’sir ko‘rsatish [7: 66.].

Mazkur bosqichlar harbiy muhitda yanada tizimli va intizomiy xarakterga ega bo‘ladi. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy) nazariyasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u shaxsning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi uning rivojlanish darajasini belgilashini ta’kidlaydi [1: 45.].

Tadqiqot maqsadi — harbiy akademik litsey o‘quvchilarida o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonining psixologik mexanizmlarini aniqlash va ilmiy asosda tahlil qilish.

Tadqiqot vazifalari:

- o‘z-o‘zini takomillashtirishning kognitiv mexanizmlarini o‘rganish;
- metakognitiv jarayonlarning rolini aniqlash;
- emotsional boshqaruv strategiyalarining ta’sirini tahlil qilish;
- harbiy muhitning shaxsiy rivojlanishga ta’sirini aniqlash.

Tadqiqot ishtirokchilari

Mazkur empirik tadqiqot 2025–2026 o‘quv yili davomida olib borildi. Tadqiqotda jami 105 nafar respondent ishtirok etdi. Tadqiqotning asosiy (eksperimental) guruhini



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Shahrisabz shahrida joylashgan Temurbeklar maktabi harbiy akademik litseyining 9–11-sinf o‘quvchilari tashkil etdi ($n=55$). Ushbu guruh ishtirokchilarining o‘rtacha yoshi 16.2 ± 0.8 ni tashkil etib, ularning 100 foizi o‘g‘il bolalardan iborat bo‘ldi. Bu holat harbiy ta’lim tizimining jinsiy tarkib xususiyatlari bilan izohlanadi.

Nazorat guruhi sifatida esa shu hududdagi 17-umumta’lim maktablarida tahsil olayotgan 50 nafar o‘quvchi jalb qilindi ($n=50$; o‘rtacha yosh 16.0 ± 0.9). Nazorat guruhi tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi muhim empirik baza sifatida xizmat qildi. Ishtirokchilarni tanlash convenience sampling (qulay tanlash) usuli orqali amalga oshirildi. Tadqiqot boshlanishidan oldin barcha respondentlardan hamda ularning otalaridan yozma ravishda rozilik (informed consent) olindi. Bu esa albatda, tadqiqotning etik me’yorlarga to‘liq mos holda olib borilganligini ta’minlaydi.

Tadqiqot kvazi-eksperimental (quasi-experimental) dizayn asosida tashkil etildi va tabiiy sharoitda (natural experiment) olib borildi. Bunday yondashuv tadqiqot jarayonida real ta’lim muhitini saqlab qolgan holda psixologik ko‘rsatkichlarni o‘rganish imkonini beradi.

Mustaqil o‘zgaruvchi sifatida ta’lim muassasasi turi (harbiy akademik litsey va umumta’lim maktabi) belgilandi. Ushbu o‘zgaruvchi o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoniga tashqi muhitning ta’sirini aniqlashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qildi.

Bog‘liq o‘zgaruvchilar quyidagilardan iborat:

- o‘z-o‘zini takomillashtirish darajasi;
- refleksivlik ko‘rsatkichi;
- metakognitiv bilim va nazorat darajasi;
- emotsional boshqaruv strategiyalari.

Mazkur dizayn orqali shaxsiy rivojlanishning kognitiv va emotsional komponentlari tizimli ravishda o‘rganildi.



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Tadqiqotda o‘zaro bog‘liq bir nechta psixodiagnostik vositalardan foydalanildi. Bu esa o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish imkonini berdi.

1. Kognitiv komponentni o‘lchash

Kognitiv jarayonlarni aniqlash maqsadida quyidagi metodikalar qo‘llanildi:

- Self-Perception Profile (SPP) — o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglash darajasini aniqlashga xizmat qildi [10: 70.]. Ushbu metodika orqali shaxsning o‘zini idrok etish va baholash xususiyatlari o‘rganildi.
- Refleksiya darajasi testi (A.V. Karpov) — shaxsning ichki tahlil qilish, o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish qobiliyatini baholash imkonini berdi [4: 28.].
- Metacognitive Awareness Inventory (MAI) — metakognitiv bilim va nazorat darajasini aniqlashda qo‘llanildi. Bu metodika orqali o‘quvchilarning o‘z fikrlash jarayonlarini boshqarish qobiliyati baholandi.

2. Emotsional komponentni o‘lchash

Emotsional boshqaruv mexanizmlarini aniqlash uchun quyidagi vositalar ishlatildi:

- Emotion Regulation Questionnaire (ERQ) — J. Gross modeli asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, kognitiv qayta baholash va emotsional bosim strategiyalarini aniqlaydi [3: 12.];
- COPE Inventory — stressli vaziyatlarda qo‘llaniladigan coping strategiyalarini o‘rganishga xizmat qildi.

3. Motivatsion komponent

O‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasini aniqlash maqsadida mualliflik metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodika o‘quvchilarning ichki rag‘batlantiruvchi omillarini va shaxsiy rivojlanishga bo‘lgan munosabatini baholash imkonini berdi.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Tadqiqotning ishonchliligini oshirish va natijalarni chuqurroq talqin qilish maqsadida sifatli metodlardan ham keng foydalanildi:

- yarim strukturalangan intervyular (n=24);
- fokus-guruh muhokamalari (4 ta guruh, har birida 6–8 nafar ishtirokchi);
- tabiiy kuzatish (dars jarayonlari, sport mashg‘ulotlari va harbiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari davomida).

Mazkur metodlar yordamida o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi, o‘z-o‘zini baholash xususiyatlari hamda ijtimoiy muhitning ta’siri sifat jihatdan tahlil qilindi.

Statistik tahlil

Olingan ma’lumotlar zamonaviy statistik dasturlar yordamida qayta ishlangan. Tahlil jarayonida quyidagi statistik usullar qo‘llanildi:

- deskriptiv statistika ($M \pm SD$);
- Student t-testi;
- ko‘p omilli dispersiya tahlili (MANOVA);
- korrelyatsion tahlil (Pearson r);
- ko‘p omilli regression tahlil.

Natijalar ishonchlilik darajasi $p < 0.05$ asosida baholandi.

Kognitiv va emotsional mexanizmlar tahlili

Empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, harbiy akademik litsey o‘quvchilarida kognitiv mexanizmlar yuqori darajada rivojlangan.

Xususan:

- refleksivlik darajasi yuqori ($M = 4.32$);
- metakognitiv nazorat kuchli shakllangan;
- “ideal Men” obrazi aniq va barqaror shakllangan.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Nazorat guruhi bilan solishtirganda ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasida statistik jihatdan muhim farqlar aniqlandi ($p < 0.001$). Bu esa harbiy muhit o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash va ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirishini tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, harbiy akademik litsey o‘quvchilari stressli vaziyatlarda ko‘proq kognitiv qayta baholash strategiyasidan foydalanadi [3: 15.].

Bu quyidagi psixologik jarayonlarda namoyon bo‘ladi:

- vaziyatni ijobiy tomondan qayta talqin qilish;
- salbiy hissiyotlarni boshqarish;
- muammoli holatlardan konstruktiv xulosa chiqarish.

Shuningdek, emotsional bosim (suppression) darajasining nisbatan pastligi aniqlandi. Bu esa o‘quvchilarda psixologik moslashuvchanlik va emotsional barqarorlik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Kurslar kesimida o‘z-o‘zini takomillashtirish dinamikasi

Tadqiqot natijalari harbiy akademik litsey o‘quvchilarida o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni vaqt omili bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Xususan, o‘quvchilarning kursdan-kursga o‘tishi bilan ularning refleksivlik, metakognitiv nazorat hamda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari izchil ravishda oshib borishi aniqlandi.

Empirik ma’lumotlar quyidagi tendensiyani ko‘rsatdi:

- 9-sinf (boshlang‘ich bosqich): o‘z-o‘zini anglash darajasi nisbatan past, tashqi nazorat ustun;
- 10-sinf (moslashuv bosqichi): refleksivlik va ichki nazorat mexanizmlari shakllana boshlaydi;
- 11-sinf (yetuklik bosqichi): metakognitiv boshqaruv va ongli o‘z-o‘zini takomillashtirish maksimal darajaga yetadi.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Mazkur natijalar shuni anglatadiki, harbiy litsey sharoiti shaxsiy rivojlanishning bosqichma-bosqich evolyutsion modelini shakllantiradi. Bu esa ijtimoiy muhitning rivojlanishga tizimli ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi.

Regression tahlil va asosiy determinantlar

Ko‘p omilli regression tahlil natijalari o‘z-o‘zini takomillashtirish darajasiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillarni aniqlash imkonini berdi.

Natijalarga ko‘ra, model quyidagicha ifodalandi:

- refleksivlik — asosiy determinant sifatida eng yuqori ulushga ega;
- kognitiv qayta baholash — ikkinchi darajali muhim omil;
- kasbiy identifikatsiya — o‘z-o‘zini rivojlantirishni barqarorlashtiruvchi faktor;
- jismoniy tayyorgarlik — yordamchi, ammo ahamiyatli komponent.

Model umumiy dispersiyaning sezilarli qismini tushuntirib beradi, bu esa tanlangan omillar o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonini izohlashda yetarli darajada ishonchli ekanligini ko‘rsatadi.

Alohida ta’kidlash joizki, refleksivlikning ustuvorligi shaxsning o‘z faoliyatini ongli ravishda tahlil qilish va tuzatish qobiliyati uning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynashini anglatadi. Intervyu va fokus-guruh natijalari o‘z-o‘zini takomillashtirishning quyidagi ichki mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi:

1. Ideal obraz orqali o‘zini boshqarish

O‘quvchilar ongida “ideal kadet” modeli shakllangan bo‘lib, u o‘z-o‘zini baholash va xulq-atvorni tartibga solishda mezon vazifasini bajaradi. Ushbu mexanizm orqali shaxs o‘z kamchiliklarini aniqlaydi va ularni bartaraf etishga intiladi.

2. Jamoaviy refleksiya va ijtimoiy nazorat

Harbiy muhitda jamoa oldida o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilish amaliyoti (masalan, “razbor” jarayoni) o‘quvchilarda:



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

- ochiqlik,
- mas’uliyat,
- tanqidiy fikrlash

kabi sifatlarni rivojlantiradi. Bu esa individual refleksiyaning ijtimoiy refleksiya bilan uygʻunlashtiradi.

3. Kaskadli oʻrganish (rol modeli orqali rivojlanish)

Kichik kurs oʻquvchilari katta kursdagilarni namuna sifatida qabul qiladi. Bu esa ijtimoiy oʻrganish nazariyasiga mos ravishda kuzatish orqali rivojlanishni taʼminlaydi [1: 52.].

4. Noqulaylik orqali psixologik oʻsish

Harbiy taʼlim jarayonida mavjud boʻlgan jismoniy va psixologik yuklamalar oʻquvchini komfort zonasidan chiqaradi. Bu esa stressga chidamlilikni oshirib, adaptiv mexanizmlarning faollashuviga olib keladi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar harbiy akademik litsey sharoitida oʻz-oʻzini takomillashtirish murakkab va koʻp komponentli jarayon ekanligini tasdiqlaydi.

Kognitiv mexanizmlar tahlili shuni koʻrsatdiki, refleksivlik va metakognitsiya shaxsiy rivojlanishning asosiy psixologik poydevorini tashkil etadi. Bu natijalar faoliyat nazariyasi va metakognitiv yondashuvlar bilan mos keladi [5: 118.].

Emotsional mexanizmlar esa J. Gross nazariyasiga muvofiq holda, kognitiv qayta baholashning ustunligini koʻrsatdi. Bu strategiya shaxsning stressni konstruktiv tarzda qayta ishlashiga yordam beradi [3: 18.].

Shuningdek, tadqiqot natijalari L.S. Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasini ham tasdiqlaydi. Yaʼni, shaxs rivoji individual emas, balki ijtimoiy muhit bilan oʻzaro taʼsirda amalga oshadi [9: 92.].



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

Nazariy va amaliy ahamiyati

Mazkur tadqiqot o‘z-o‘zini takomillashtirishni faqat ichki psixologik jarayon sifatida emas, balki tashqi muhit bilan bog‘liq kompleks tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Harbiy litsey misolida tashqi intizomiy tizim ichki rivojlanish mexanizmlarini faollashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari quyidagi amaliy yo‘nalishlarda qo‘llanishi mumkin:

- harbiy ta’lim muassasalarida psixologik trening dasturlarini ishlab chiqish;
- refleksivlik va metakognitsiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni joriy etish;
- o‘quvchilarda stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

XULOSA

Mazkur ilmiy tadqiqot harbiy akademik litsey sharoitida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonining psixologik mexanizmlarini kompleks tarzda o‘rganishga qaratildi. Olingan empirik natijalar hamda nazariy tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchi, o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni ko‘p komponentli tizim bo‘lib, u uch asosiy psixologik mexanizm orqali amalga oshadi:

- kognitiv mexanizm — refleksivlik va metakognitiv nazorat orqali shaxsning o‘zini anglash va “ideal Men” obrazini shakllantirish;
- emotsional mexanizm — kognitiv qayta baholash orqali stressli vaziyatlarni konstruktiv tarzda boshqarish;
- ijtimoiy mexanizm — jamoaviy ta’sir, ierarxik munosabatlar va rol modellari orqali shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.

Ikkinchi, tadqiqot natijalari harbiy akademik litsey o‘quvchilarida refleksivlik, metakognitiv nazorat va o‘z-o‘zini boshqarish darajasi nazorat guruhiga nisbatan



**“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatdi ($p < 0.001$). Bu esa harbiy ta’lim muhitining shaxsiy rivojlanishga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayoni dinamik xarakterga ega bo‘lib, kurslar bo‘yicha bosqichma-bosqich rivojlanadi. Ayniqsa, yuqori sinf o‘quvchilarida metakognitiv strategiyalar va kasbiy identifikatsiya darajasi maksimal ko‘rsatkichlarga yetadi. Bu holat shaxsning ijtimoiy va kasbiy o‘zini anglash jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir.

To‘rtinchidan, harbiy muhitda mavjud intizomiy talablar va yuqori yuklama o‘z-o‘zini takomillashtirishga salbiy emas, balki aksincha, uni rag‘batlantiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu omillar refleksivlik, ichki nazorat va psixologik barqarorlikni kuchaytiradi.

Umuman olganda, harbiy akademik litsey muhiti o‘quvchilarda o‘z-o‘zini takomillashtirishni majburiy faoliyatdan ongli, maqsadli va ixtiyoriy jarayonga aylantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati va shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishishlari uchun muhim psixologik asos yaratadi.

KELAJAK TADQIQOTLARI UCHUN TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot natijalariga tayangan holda, kelgusida quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- uzoq muddatli (longitudinal) tadqiqotlar orqali o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonining vaqt davomida o‘zgarishini o‘rganish;
- gender omilining ta’sirini alohida tahlil qilish;
- turli tipdagi ta’lim muassasalari (prezident maktablari, sport maktablari va boshqalar) o‘rtasida solishtirma tadqiqotlar o‘tkazish;
- psixologik intervensiya va trening dasturlarining samaradorligini eksperimental tarzda baholash.



“ZAMONAVIY TA’LIM VA TILSHUNOSLIK RIVOJI”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026

• FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura A. *Self-efficacy: The exercise of control*. — New York: Freeman, 1997.
2. Deci E. L., Ryan R. M. The “what” and “why” of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior // *Psychological Inquiry*, 2000. — Vol. 11. — P. 227–268.
3. Gross J. J. Emotion regulation: Conceptual and empirical foundations // *Handbook of Emotion Regulation*. — New York: Guilford Press, 2014. — P. 3–20.
4. Karpov A. V. *Psixologiya metakognitivnoy deyatel'nosti lichnosti*. — Voronej: MODEK, 2020.
5. Leontyev A. N. *Deyatel'nost, soznanie, lichnost'*. — Moskva: Smysl, 2021.
6. Morosanova V. I. Osoznannaya samoregulyatsiya kak resurs psixologicheskogo blagopoluchiya // *Psixologicheskij jurnal*, 2020. — №4. — B. 20–33.
7. Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // *Theory into Practice*, 2002. — Vol. 41. — P. 64–70.
8. Karabanova O. A., Molchanov S. V. Psixologik rivojlanishning kadet ta'limidagi xususiyatlari // *Psixologiya va ta'lim*, 2021. — №3. — B. 42–58.
9. Vygotskiy L. S. *Sobranie sochineniy*. — Moskva: Pedagogika, 2019.
10. Pantileev S. R. Shaxsiy rivojlanishni o'rganish metodikasi // *Psixologik diagnostika*, 2020. — №2. — B. 67–89.